Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Oltin Rakhimova – PhD, dotsent

Urganch innovatsiya universiteti (Xorazm, O‘zbekiston)
E-mail: altinrakhimova@gmail.com
ORCID: 0009-0009-4037-1344

TARIXIY ASARLAR MATNINI TADQIQ QILISH USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy asarlar matnini tadqiq qilishning zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, tarixiy matnlarni o‘rganishda tekstologik, lingvistik, tarixiy-taqqoslash, kontekstual hamda korpus lingvistikasi metodlarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy matnlarni raqamlashtirish, lingvistik korpus yaratish va statistik tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarixiy matnlardagi leksik-semantik birliklarni aniqlashda so‘z chastotasi, kollokatsiyalar va leksik birliklarning qo‘llanish dinamikasi kabi statistik ko‘rsatkichlarning o‘rni tahlil qilinadi. Natijalar tarixiy matnlarning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini chuqurroq anglash, ularning zamonaviy til bilan uzviy bog‘liqligini aniqlash hamda til taraqqiyotini ilmiy asosda tadqiq etishga xizmat qiladi. Maqola tarixiy leksikani o‘rganish, matn lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi yo‘nalishlarida yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy asar, tekstologiya, lingvistik tahlil, kontekstual yondashuv, tarixiy-taqqoslash metodi, korpus lingvistikasi, statistik metodlar, leksik chastota, kollokatsiya, raqamlashtirish, til taraqqiyoti.

Altin Rakhimova – PhD, associate professor
Urgench Innovative University (Khorasm, Uzbekistan)

HISTORICAL TEXT ANALYSIS METHODS

Abstract: This article examines modern scientific and methodological approaches to the study of historical texts. Particular attention is paid to the importance of textological, linguistic, historical-comparative, contextual, and corpus-linguistic methods in the analysis of historical works. The research also investigates the processes of digitizing historical texts, compiling linguistic corpora, and applying statistical methods in text analysis. Special emphasis is placed on identifying lexical-semantic features through statistical indicators such as word frequency, collocations, and the dynamics of lexical unit usage. Furthermore, the article substantiates the theoretical and practical significance of corpus-based approaches in identifying language changes reflected in historical texts. The findings contribute to a deeper understanding of the lexical, grammatical, and stylistic characteristics of historical texts, their relationship with modern language development, and the evolution of language in general. The study also provides a foundation for developing new scientific conclusions in the fields of text linguistics, historical linguistics, and computational linguistics.

Keywords: historical text, textology, linguistic analysis, contextual approach, historical-comparative method, corpus linguistics, statistical methods, lexical frequency, collocation, digitization, language development, computational linguistics.

Алтин Рахимова – PhD, доцент
Ургенчский инновационный университет (Хорезм, Узбекистан)

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕКСТОВ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные научно-методологические подходы к исследованию текстов исторических произведений. Особое внимание уделяется значению текстологических, лингвистических, историко-сопоставительных, контекстуальных и корпусно-лингвистических методов в изучении исторических текстов. В исследовании анализируются процессы оцифровки исторических текстов, принципы составления лингвистических корпусов, а также возможности применения статистических методов при анализе текстов. В частности, рассматриваются способы выявления лексико-семантических особенностей текста с использованием статистических показателей, таких как частотность слов, коллокации и динамика употребления лексических единиц. Кроме того, обосновываются теоретические и практические преимущества корпусного подхода при выявлении языковых изменений в исторических текстах. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию лексических, грамматических и стилистических особенностей исторических текстов, их связи с современным состоянием языка и процессами языкового развития. Статья также служит основой для выработки новых научных выводов в области текстовой, исторической и компьютерной лингвистики.

Ключевые слова: исторический текст, текстология, лингвистический анализ, контекстуальный подход, историко-сопоставительный метод, корпусная лингвистика, статистические методы, частотность лексики, коллокация, оцифровка, развитие языка, компьютерная лингвистика.

KIRISH

Matnshunoslikning tarixiy ildizlari eng qadimgi davr yozma yodgorliklari matnini o‘rganishga borib taqaladi. Insoniyat tarixida ixtiro qilingan har bir kashfiyot, avvalo, ijtimoiy hayot ta’sirida yuzaga keladi va ko‘p asrlik an’analar doirasida shakllanib boradi. Yozma yodgorliklar matni bevosita yozuv tarixi bilan bog‘lanadi. Dastlab piktografik yozuv kashf qilingan. Bu yozuvda chizilgan shakllar asosida odamlar mantiqiy fikr yuritib gap tuzgan. Piktografik yozuv taraqqiyoti asosida ligografik yozuv vujudga keldi. Piktogramma to‘g‘ridan-to‘g‘ri predmetni rasm orqali ko‘rsatsa, ligogramma so‘zning ma’nosini tushuncha orqali ifodalaydi. Bunda tildagi har bir so‘z o‘z ramziy timsoliga ega bo‘ladi. Iyeroglifik yozuv logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko‘rinishidir. Piktografik, ligografik va iyeroglifik yozuvlar taraqqiyoti natijasida fonografik yozuv vujudga keldi. So‘z tovush orqali idrok etilib, har bir eshitilayotgan tovushga alohida belgi (harf) qabul qilish istagi fonografik yozuvni yuzaga keltiradi. Matnshunoslikning tarixiy taraqqiyotini kuzatish bu davrlarda yig‘ma matnlar, juzvbo‘laklar holidagi alohida matnlar, sharh-matnlar ancha keng tarqalganini ko‘rsatadi. Albatta, bu jarayonlar o‘zbek matnshunosligida muayyan prinsiplarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi.

Tarixiy asarlar xalqning madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotini, shuningdek, milliy tafakkur va til tarixini aks ettiruvchi yozma manbalar hisoblanadi (Rahmonov, 2020). Ularni ilmiy asosda tadqiq qilish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik va tarix fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy matnlar arxaik leksika, murakkab grammatik tuzilmalar va davrga xos stilistik xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli ularni to‘liq anglash uchun maxsus metodlar talab etiladi (Karimov, 2019).

Tarixiy matnlarni o‘rganishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular orqali milliy tilning rivojlanish bosqichlari aniqlanadi va madaniy va tarixiy hodisalar bilan bog‘liq leksik birliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, matnshunoslik va lingvistik tadqiqotlar uchun manba yaratiladi. Shu maqsadda maqolada tarixiy asarlarni tadqiq qilish usullari, ularning amaliy qo‘llanilishi va ilmiy ahamiyati kengaytirilgan tarzda yoritiladi.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llandi:

Tekstologik tahlil – matnning qo‘lyozma va nashr variantlarini solishtirish, asl nusxani aniqlash. Bu usul tarixiy matnning ishonchlili-

gini baholash va matndagi variantlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. *Lingvistik tahlil* – fonetik, morfologik, leksik va sintaktik birliklarni o‘rganish orqali matnning til xususiyatlarini aniqlash. *Tarixiy-taqqoslash usuli* – matn tarkibidagi voqealar, termin va iboralarni davrlar kesimida solishtirish orqali tilning rivojlanish dinamikasini aniqlash (Rahmonov, 2020). *Kontekstual tahlil* – matn mazmunini ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekst bilan bog‘lash. Bu yondashuv matnning tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi (Yo‘ldashev, 2021). *Semantik tahlil* – qadimgi so‘zlarning ma’nosini va ularning zamonaviy til bilan aloqasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot uchun tanlangan matnlar orasida O‘zbekiston tarixiy manbalari, klassik she’riy asarlar va qadimgi hujjatlar mavjud bo‘lib, ular turli davrlarni aks ettiradi.

NATIJALAR

Tekstologik tahlil matnning asl nusxasini aniqlash va variantlar o‘rtasidagi tafovutlarni belgilashga yordam berdi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining turli qo‘lyozma nusxalarida ayrim so‘z va iboralarning farqli yozilgani uchraydi: bir nusxada “ko‘ngul”, boshqasida esa “dil” shakli qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Tekstologik tahlil orqali qaysi variant muallif uslubiga yaqinligi aniqlanadi.

Lingvistik tahlil qadimgi leksik birliklarning ma’nosini ochib berdi, ular orqali o‘quvchilar va tadqiqotchilar milliy tilning rivojlanish bosqichlarini anglab yetishlari mumkin. Masalan, eski o‘zbek tilidagi “cherik” so‘zi bugungi kunda “qo‘shin”, “sipoh” esa “askarlar” ma’nosida qo‘llanganini aniqlash mumkin. Shuningdek, “yarlig‘” so‘zi hukmdor farmoni ma’nosini bildirgan. Bu kabi birliklar til tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Tarixiy-taqqoslash usuli yordamida matndagi davrga xos stilistik va grammatik xususiyatlar aniqlanib, ular zamonaviy o‘zbek tili bilan bog‘landi. Masalan, qadimgi matnlarda uchraydigan “ermish” shakli hozirgi o‘zbek tilidagi “ekan” yordamchi fe’liga mos keladi. Yoki eski matnlardagi “anda”, “munda” birliklari zamonaviy tildagi “u yerda”, “bu yerda” shakllariga aylanganini ko‘rish mumkin. Bu usul tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini qiyosiy ravishda tushunishga yordam beradi.

Kontekstual tahlil esa matn mazmunini o‘sha davrning siyosiy va madaniy vaziyati bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Masalan, Amir Temur davriga oid manbalarda davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar va diplomatik munosabatlarga oid terminlarning ko‘pligi o‘sha davr siyosiy hayotining faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Jadid adabiyoti namunalarida esa “ma’rifat”, “taraqqiyot”, “millat” kabi tushunchalarning keng qo‘llanishi XIX-XX asr boshidagi ijtimoiy uyg‘onish jarayonlari bilan bog‘liq ekanini anglash mumkin (Safarov, 2006).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy asarlarni o‘rganishda kompleks yondashuv, ya’ni tekstologik, lingvistik, tarixiy-taqqoslash va kontekstual metodlarni uyg‘un qo‘llash eng samarali hisoblanadi. Chunki aynan shu metodlar birgalikda qo‘llanganda matnning nafaqat til xususiyatlari, balki uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati ham to‘liq ochib beriladi.

MUHOKAMA

Tarixiy asarlarni tadqiq qilish nafaqat matnshunoslik, balki tilshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. Tadqiqot shuni ma’lum qiladi. Tarixiy matnlarni chuqur o‘rganish o‘quvchilarning tarixiy va lingvistik tafakkurini rivojlantiradi (Crystal, 2010). Turli metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi ilmiy natijadorlikni oshiradi. Olingan natijalar ona tili ta’limida tarixiy asarlar bilan ishlashni samarali tashkil etish imkonini beradi. Mazkur maqolada tarixiy asarlar matnini zamonaviy korpus lingvistikasi va statistik metodlar asosida o‘rganish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy matnlarni raqamlashtirish, korpus tuzish prinsiplari hamda ularni lingvistik tahlil qilishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Xususan, so‘z chastotasi, kollokatsiyalar, leksik birliklarning qo‘llanish dinamikasi kabi statistik ko‘rsatkichlar orqali matnning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, tarixiy matnlardagi til o‘zgarishlarini aniqlashda korpus yondashuvining afzalliklari va amaliy ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tarixiy leksikani chuqurroq o‘rganish, matnshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida yangi ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixiy asarlar matnini korpus va statistik metodlar orqali o‘rganish

zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv tarixiy leksikani tizimli tahlil qilish, til taraqqiyoti dinamikasini aniqlash hamda ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida tarixiy matnlar korpusini kengaytirish, ularni avtomatlashtirilgan tahlil vositalari bilan integratsiya qilish orqali tadqiqot samaradorligini yanada oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Rahmonov N. Tarixiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
2. Karimov A. O‘zbek matnshunosligi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Qodirov P. Tarix va adabiyot uyg‘unligi. – Toshkent, 2018.
4. Yo‘ldoshev J. Tarixiy matnlar va til. – Toshkent, 2021.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.